



Hojiyev Rasulbek Boynazar o'g'li,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

YOSHLARDA KREATIVLIK XUSUSIYATLARINI YUZAGA KELTIRUVCHI IJTIMOIIY OMILLAR INTERPRETATSIYASI

<https://doi.org/10.65185/mojgo.vi.500>

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarda kreativlik xususiyatlarini shakllantirish va rivojlantirishning muhim jihatlari, ularga ta'sir qiluvchi omillar borasida fikr yuritiladi. Yoshlarda kreativ fikrlash tarzini qaror toptirishda faylasuflar va mutafakkirlarning qarashlari, bu borada oila va ta'lim muassasalarining hamkorligi xususidagi qarashlar ham bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: kreativlik, kreativ tafakkur, yoshlar, oila, ta'lim muassasasi, ijtimoiy muhit.

Аннотация. В данной статье рассматриваются важные аспекты формирования и развития творческих качеств у молодежи, а также факторы, влияющие на этот процесс. Анализируются взгляды философов и мыслителей на становление творческого мышления у молодых людей, подчеркивается значение взаимодействия семьи и образовательных учреждений в развитии креативного мировоззрения.

Ключевые слова: креативность, креативное мышление, молодежь, семья, образовательное учреждение, социальная среда.

Annotation. This article examines important aspects of developing and enhancing creative qualities in young people, as well as the factors influencing this process. It analyzes the views of philosophers and thinkers on the formation of creative thinking among youth and emphasizes the significance of cooperation between the family and educational institutions in fostering a creative worldview.

Keywords: creativity, creative thinking, youth, family, educational institution, social environment.

Kirish. Bugungi kunda fan, texnologiyalar va texnik kashfiyotlarsiz jamiyatni rivojlantirish mavjud emasligini aniq anglatgan bo'lsakda, kreativlikka bag'ishlangan asar va adabiyotlarda ilmiy va fan, texnologiyalarga bag'ishlanadigan bilimlarning amaliy ahamiyati tilga olinmaydi, ularni tadqiq etish va o'rganish metodologiyasi asoslab berilmaydi. Fan, texnologiya, kashfiyot kabi nazariy bilimlar ham jamiyat taraqqiyotining obyektiv qonunlari, talablari in'ikosidir. To'g'ri, madaniy va

ma'rifiy merosimizda bu maslalani tadqiq etishga o'rin topilmagan, ammo bugungi kun tadqiqotlari taqozo etadi. Jamiyat taraqqiyotida, ijtimoiy hayotning bir nechta sohalarida fan va texnologik yutuqlaridan unumli foydalanish zaruriyatga aylangan. Qadimgi yunon faylasufi, Arastu "Kishi bilimlari tufayli o'zining asosiy insonlik mohiyatini amalga oshiradi va bu uning barcha eng elementar xatti-harakatlaridayoq namoyon bo'lib turadi"¹, deb

¹ Аристотель. Метафизика. Соч. в 4-х т. 1980. – 65 б.

ta'kidlaydi. Ularni egallab olgan bilimlari ma'lum bir tadqiqotlar asosida yangi qirralari bilan jamiyatda ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan natijadorlikni vujudga keltiradi. Yaratuvchanlik xususiyatlari esa yoshlarni ijodiy faoliyati yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Ijod bu falsafiy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, eng unumli, iqtidorini namoyon etadigan, sotsial jihatlariga ega bo'lgan faoliyat usuli tushuniladi. Har qanday shaxsni bilish faoliyatida, ijod va faollik katta o'rin egallaydi.

Maqsad va uni asoslash. Izlanayotgan obyektning xususiyatlari va xossalarini, uning teran mazmunini to'liq, aniq bilish bu ijodning vazifalaridan biridir. Yoshlarni tafakkur tarzini rivojlantirishda hamda bilish faoliyatida ijod bu shaxsning mutlaqo yangi bilimni joriy etishga yo'naltiradigan noan'anaviy dunyoqarashi, bilish faoliyatining jihatlar va haqqoniy natijalarini olishga ongli ravishda qilingan mo'ljaldir. "Bilishning tabiatini, bilimning voqelik asoslanishi va bilish jarayonining umumiy (tabiiy va ijtimoiy) shart-sharoitlarini vujudga keltirish, yoshlarni bilim faoliyatini yuksaltirish metodologiyasi va epistemologiyasida ijodiy faoliyatni falsafiy o'rganish, bugungi kunda alohida ahamiyatga egadir. Ijtimoiy taraqqiyot va zamonaviy texnika-texnologiyalarni taraqqiy qilishi davomida kreativ tafakkur va ijtimoiy-madaniy hayot orasida o'zaro monandlikning shakllari aks etib bormoqda. Bilish, uning shakllari va mazmuni ikki xil jarayon, ya'ni, birinchidan, voqelikni ongda in'ikos etish, ikkinchidan, kognitiv konstruktivlik (tafakkurdagi konseptual va semantik transformatsiya) jarayonlarining murakkab sintezi mahsulidir. Shu bois, yangi g'oyalar va nazariyalarni yaratishda o'ziga xos intellektual mexanizm rolini o'ynaydigan kognitiv konstruktiv masalalariga qiziqish kuchayib ketdi"². Yosh avlodning dunyoqarashi va bilimi uni izlanishi, xarakati va intilishi asosida takomillashib boraveradi. Ya'ni ular, o'qib, o'rganib, uni amaliy tarziga aylantira olishi tafakkurni yuksalashiga sabab bo'la oladi. Bu borada, u tarixiy, akseologik, yangilanish holatlarini boshidan kechiradi. Shaxsni tafakkur tarzi uchun zamin bo'lgan bilish faoliyati olamdagi barcha predmetlarning xususiyatlari, rivojlanish qonuniyatlarning mohiyatini dunyoqa-

rashda tushunchalar, ta'limotlar joriy etish hamda yo'naltira olishdan iboratdir.

Iqtisodiy taraqqiyotni maqsad qilib qo'ygan barcha jamiyatlar kreativlikka tayanadi, kreativlik fan-texnika rivojlanishi va taraqqiyotining kafolati bo'ladi. Shuning uchun kreativlik izlanishning vazifalarini ijtimoiy maqsadlar bilan uyg'unlikda qarash maqsadga muvofiqdir. Aynan shu sababli har bir kishi ijodiy yondashuvi asosida ko'pgina g'oyalar, ixtirolar, kashfiyotlarni yaratishi va yaratgan narsalarni yanada takomillashtira olishi mumkin. Bunda esa tinmay mehnat qilishi, izlanishi dunyo bilimlarini to'liq egallay olishi lozim.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Fizik olim, kvant mexanikasining asoschisi N.Borning fikriga ko'ra, "Yoshlarning kreativlik faoliyatini yuksaltirish uchun, avvalo, ulardagi iroda erkinligi muammosini tafakkur va tuyg'ularning o'zaro to'ldiruvchanligi asosida yechish lozim. Zero, agar biz yoshlardagi o'ziga xos tuyg'ularni ko'r-ko'rona tahlil etishga urinsak, ularni o'zgartirib qo'yamiz va aksincha, tuyg'ularni saqlab qolmoqchi bo'lsak, u holda tahlil imkoniyatidan mahrum bo'lamiz"³. Kreativlik va kreativ fikrlash tug'ma bo'lgan va tug'ilgandan so'ng ijobiy muhit sharoitlarida rivojlanadigan, noqulay ijtimoiy muhit sharoitlarda esa turg'unlik kasb etadigan yoki unutilib ketadigan mahorat sifatida qaraladi. Albatta, shaxslar, jamiyatlar va davlatlar bu mahoratning rivojlanishini xohlaydi yoki istashi kerak. Iqtisodiyot, fan, sanoat, texnika, qishloq xo'jaligi, savdo va hakoza kabi ko'plab sohalarida taraqqiyot shiddat bilan kechayotgan bugungi dunyoda shaxsning kreativligi, kreativ fikrlash qobiliyatlari o'tmishdagiga qaraganda ko'proq birinchi o'ringa chiqib, ularning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Shaxslarning kreativlik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda oila, ijtimoiy va psixologik muhit, maktab, o'quv dasturlari (darslar), o'qituvchi, ommaviy axborot vositalari va har xil axborot manbalari kabi ko'plab omillar o'rin egallaydi. Bu omillar ongli ravishda va birgalikda harakat qilishi kreativlik va kreativ fikrlashni rivojlantirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Bunga erishish uchun eng avvalo, oila, o'qituvchi, ijtimoiy muhitdagi shaxslar kreativlik va kreativ fikrlashga ta'sir qiluvchi barcha omillar, shu jumladan kreativ

² Кушаков Ш.С. Язык. Мышления и виртуальность (зарисовки к постнеклассической философии языка) // Глобаллашув шароитида фалсафа ва миллий ғоянинг долзарб масалалари. – Тошкент: ЎЗМУ, 2017. – С. 34-36.

³ Мингал А.Б. Физика и философия // Вопросы философии. № 1, 1990. – С. 16.

fikrlash haqida umumiy va asosiy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Oilada shaxs o'z hatti-harakatlarini namoyon etadi, hayotning mohiyati va umr mazmunini, yashash tarzini o'rganadi. Inson oilada omon qolish (survival values), o'zini namoyon etish kabi qadriyatlarni (self-expression values) o'zlashtiradi, muhimi oila ma'naviy yaratuvchanlikni amalga oshiradi (spiritual production)"⁴. Xuddi shu tarzda, boshqa tashqi omillar ham yoshlarning aqliy faoliyati va individual rivojlanishida muayyan o'ringa ega hisoblanadi.

Sternberg va Lubart tomonidan bildirilgan "kreativlikning investitsiyalash nazariyasi" sida oltita alohida bir-biri bilan uzviy bo'g'liqlikdagi shartlar inson kreativligini rivojlantiruvchi omillar sifatida ko'rsatishgan. Bularga "(sintez va analitik ko'nikmalar kabi) intellektual qobiliyatlar, muayyan sohaga tegishli bilim (yangicha tarzda fikrlay olish kabi), o'ziga xos "fikrlash usullari", rag'batlantirish, ma'lum shaxsiy xususiyatlar hamda ijodiy g'oyalarni rag'batlantiruvchi va ularga ko'maklashuvchi muhit kiradi. Sternberg ijodiy ishtiyoq har bir alohida komponent jamlanmasidan murakkabroq ekanini tushuntirib, keyinchalik mazkur manbalarning bir-biriga mos kelishining ahamiyati ustida ish olib bordi. Turli komponentlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik turlicha natija berishi mumkin. Misol uchun, bir necha ko'nikmalarning jamlanmasi ijodiy takomillashuvga olib keladi; bundan farqli o'laroq, boshqa tarkibiy qismlarning mavjudligi yoki darajasidan qat'i nazar, har bir komponent uchun minimal chegara bo'lishi mumkin, bu holatda ijodiy yutuqlarga erishib bo'lmaydi"⁵.

Kreativlik tafakkurda ma'lum bir qoidalar, normalar va qarashlar, me'yorlar, ta'limotlar aylanasi chegaralanib qola olmaydi, unga ma'lum bir beorom izlanish, biror bir narsani yaratish, ontologik jihatlarini takomillashtirishga intilish xos. Uzluksiz holatda takomillashish uning stixiyasi va talabidir. Falsafiy tafakkur, dunyoqarashdagi kreativlik xususiyatlarning shakllantirish tamoyilli hisoblandi. Milet maktabning vakillari Anaksimandr, Anaksimenes va Faleslar borliq, olam kabi kreativlik xususiyatlari borasida o'zlarining g'oyalarini ilgari surishgan. "Hamma narsalarning vujudga kelish va shakllanish ibtidosiga Fales suvni,

Anaksimenes havoni, Anaksimandrda apeyronlarni qo'yishining o'zi fan yangilik (innovatsiya) bo'lib hisoblanadi. Fales ilm-fandagi innovatsion qarashlar kashfiyotchisi sifatida quyosh tutilishi sababini aniqlab oy quyosh oldiga chiqib uning nurlarining yerga yetib kelishini to'sqinlik qilishi, quyosh yili bo'yicha bir yil davomiyligi 365 kun ekanligi, kichik ayiq yulduzi tuzilishi, geometriya haqida qo'plab ma'lumotlar berib o'tadi. Fales tabiatan gilozoistik qarashni ilgari suradi. Barcha narsalarning tirik va jonli ekanligini isbotlashga urinib ko'rgan va bir necha qarashlari bilan hatolarga yo'l qo'ygan"⁶. Har bir shaxs shakllanishida bilim va aqlni roli katta bo'lib, buning ahamiyatini faylasuf, Aflotun bilimlarni tarkibiy jihatlaridan asoslagan holda buni ikkita ya'ni aqliy va hissiy omillarga bo'ladi. Hissiy (5 ta sezgi: tam, xid, eshitish, teri orqali sezish va ko'rish) bilim – quyi tur, aqliy bilim esa yuqori turdir. Ularning har biri o'z navbatida "tafakkur" va "idrok"ka bo'linadi. Aflotunning fikricha, "tafakkur" birgina aqlning faoliyatidir. U hissiy qorishmadan holidir. U bevosita aqliy obyektlarni his etadi. Bu faoliyatni keyinchalik Arastu tafakkur haqidagi tafakkurdir degan edi. Aflotunning fikricha, "dialektika bu oliy fan bo'lib, tafakkurning so'nggi bosqichi, insoniyat fikrlash qobiliyatining mukammal qismi hisoblanadi. Uning ta'kidlashicha, dialektika bu og'zaki suhbat, savol-javob, isbotlash, hissiy bilishdan qutulish, tafakkur orqali g'oyalar dunyosini chuqurroq bilish vositasidir deb ta'kidlab o'tadi. "Tafakkur – obyektiv voqelikning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi aktiv in'ikos protsessi, insonning fikrlash qobiliyati, fikrlash tarzini ifoda etuvchi tushuncha hisoblanadi. U o'ylash, fikr yuritish, mulohaza bildirish, u yoki bu voqelikni baholash, xullas, insonning subyektiv qarashlari, faoliyati ifodasidir"⁷. O'zbek tilidagi "Falsafa ensiklopediyasi"da tafakkurga "obyektiv olam in'ikosining oliy shakli; obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Ong jarayonida insonda fikr mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushuncha, hukm, xulosalar shaklida ifodalanadi"⁸, deb ta'rif beriladi.

⁶ Асмус В.Ф. История античной философия. Москва. 1965. – С. 26.

⁷ O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti", 2008. – B. 13.

⁸ Фалсафа энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат миллий нашриёти, 2000. – 275 б.

⁴ Латипова Н.М. Молодежь в социальной структуре Узбекистанского общества // Общественное мнение. Права человека. – Ташкент, 2004. – №3. – С. 138-146.

⁵ Sternberg, R. (2006), "The nature of creativity", Creativity Research Journal, Vol. 18/1, - P. 87-98.

Inson kreativlik orqali jamiyatni rivojlantira oladi. Jamiyat taraqqiyotida fan-texnika, texnologiya, qarash va nazariyalar, usul va uslublar, yangilik va kashfiyotlar zamon shiddati bilan o'zarib bormoqda "XXI asr axborot texnologiyalari asri bo'lib, internet va axborot texnologiyalar rivojlanib bormoqda. Inson va jamiyat hayot suratlari misli ko'rilmagan darajada tezlashib ketdi"⁹. Aynan axborotlashuv davrida ilm-fan, texnika, texnologiya yutuqlari, yangi bilim va qarashlar, yangi g'oyalarni tarkib topib, bu nafaqat jamiyat butun olamni o'zgartirishga xizmat qilmoqda. Bu esa texnologik yutuqlarni hamda ijodkorlik jaroyoni asnosida kreativlikni quyidagi yangi yo'nalishlarda o'z ifodasini namoyon qilmoqda.

1. Ijodkor, yangiliklar va innovatsiyalarni yaratuvchi yoshlarni, hamda bilim doirasi keng intellektual yoshlarni yetishtirish;

2. Fan va texnologiya hamda dunyoqarash, tafakkurni jamiyatni ma'naviy negizlari asosida, umuminsoniy qoidalari asosida shakllantirishning yangi metodologiyasini yaratish;

3. Qobiliyatli va yuksak intellektuallik xususiyatlarni qo'llab-quvvatlagan holda ularda jamiyat oldidagi mas'uliyatlilik, mehnatsevarlilik, izlanuvchanlilik burch kabi xususiyatlarni shakllantirish.

Adabiyotlarda nazariy ma'lumotlar va mavzu bo'yicha tadqiqotlar aql, miya, divergent fikrlash va tasavvurning kreativlikka ta'sir qilishini yoki kreativlikning ushbu elementlar bilan sezilarli aloqasi borligini ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, kreativlik bilan yosh va jins o'rtasida bog'liqlik mavjud. Biroq ko'pgina manbalarda bu aloqa ahamiyatli emasligi ta'kidlangan. Shaxsda kreativlik xususiyatlarini yuzaga keltiruvchi omillarni individual va ijtimoiy jihatlardan kelib chiqib quyidagicha tasniflashimiz mumkin: Ichki (individual) va tashqi (ijtimoiy) omillar.

Ichki (individual) omillarga aql, bilim, miya, yosh davri, fikrlash tarzi, tasavvur, ochiqlik, qiziquvchanlik, sabr-toqatlilik, ichki motivatsiya kabi bir qator omillarni kiritishimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlil qilinganida, kreativlik bilan eng ko'p aloqador bo'lgan omil – bu **aql**dir. Garchi bu ilmiy asossiz bo'lsa ham

tadqiqotchilar odatda kreativlikni aql bilan bog'lab tushuntirishga harakat qilganlar, ba'zi hollarda ular har ikkala tushunchani ham aniqlashga muvaffaq bo'lganlar. Insonning eng kreativ bo'lgan davri bolalik deb hisoblansa ham, odatda aql kreativlikka katta hissa qo'shib kelmoqda¹⁰

Yuqorida keltirilgan tadqiqotchilarning qarashlarida ham bayon etilganidek kreativlik va aql asosan shaxslarning tug'ma qobiliyatlari hisoblanib, har ikkala qobiliyat ham muayyan muhit sharoitlari va ta'lim bilan shakllantirilishi hamda rivojlanishi mumkin. Ushbu mavzu bo'yicha Getzels va Jekson aql va kreativlik o'zaro mutanosib ekanligini, aql darajasi oshgani sayin shaxslar kreativ faoliyatda muvaffaqiyat qozonishini ta'kidlaydi¹¹.

Yangilikni joriy etuvchilar – innovatorlardir. Shuning uchun har qanday yangiliklarni kashf etilishida, kreativlik va yangi fikrlar, g'oyalar, qarashlar, strategiyalar yotadi. Yaratuvchi anglab yetgan, sezgan ehtiyoj mavjud akseologik qarashlardan keng, rang-barang, hatto ularga qarama-qarshi holatda namoyon bo'lishi ham mumkin. Bunday taqdirda yangiliklar bilan an'anaviylik o'rtasida kurash kechishi, ko'pincha bu holat an'analar tomoniga hal bo'lishi ham tasdiqlanadi.

Kreativlikning ijtimoiy-madaniy voqeligi uning ijtimoiy yo'nalishlar bilan o'zaro bog'liqligida, shaxs faoliyatiga yaratuvchanlik, kreativ mohiyat va amaliy xususiyat baxsh etishida ham ko'rinadi. Aslida bu xususiyatlar kreativlikning tub mohiyatidan, yangi g'oya, ishlanma va empirik tajriba sifatida jamiyatda namoyon bo'lgan borliqni o'zgartirishga qaratilgan bosh vazifasidan kelib chiqadi. Bu vazifalarga olimlar quyidagilarni kiritishadi:

– kreativlik xususiyatlar mehnat jarayonini intellektuallashuviga xizmat qilib, uning ilmiy salohiyatini ro'yobga chiqargan holda inson bilimi hamda uni yutuqlari, amaliy natijalarni hayotga tadbiq etish tomiri hisoblanadi;

– kreativlik xususiyatlar asosida ishlab chiqarilayotgan narsalar yoki predmetlar doirasi yanada kengaytiriladi, ularning sifat darajasi yanada yaxshilanadi, bu esa insoniyatni ehtiyoj va manfaatlar darajasi oshishiga xizmat qiladi;

¹⁰ Starko, A. J. (2010). Creativity in the classroom: Schools of curious delight, New York, Routledge Madison Ave.

¹¹ Can Yaşar, M. (2009). Anasınıfına devam eden altı yaş çocuklarının yaratıcı düşünme becerilerine drama eğitiminin etkisinin incelenmesi. Doktora tezi, Ankara Üniversitesi, Fen Bilimleri Enstitüsü.

⁹ Файзуллаев О. Фанда инновацион фикрлаш: тарихимизда ва ҳозирги замонда // Ўзбекистон фани ва технологияларида инновация: муаммолар, ечимлар ва истиқболи. Конференция материаллари. – Самарқанд: Университет, 2007. – Б. 5.

– kreativlik xususiyatlar yangi ishlab chiqarish kuchlarini ishlab chiqarishga jalb etish, mahsulot va xizmatlarni kamroq mehnat, energiya va materiallar sarfi bilan ishlab chiqarish imkonini beradi;

– biror bir sohada innovatsiyalar raqobati takror ishlab chiqarish tuzilmasini o'zgargan ehtiyojlar tuzilmasi va tashqi muhit tuzilmasiga muvofiq holatga keltirishga yordam beradi"¹². Ushbu vazifalarni yana davom ettirish mumkin, ammo ularni ijtimoiy-falsafiy nuqtai-nazardan, ilmiy-texnik va ijodiy faoliyat deb qarashimiz mumkin. Ushbu faoliyat turlari bilan uyg'unlashtirish kreativlik xususiyatlarning yuqoridagi vazifalarini ijtimoiy-falsafa nuqtai-nazaridan yoritishdir.

Kreativlik kelajakka yo'naltirilmagan yangilanish yo'q, har qanday kreativlik mavjud an'analardan, tajribalar va yondashuvlardan farq qilishi bilan yangilikdir. Kelajakka yo'naltirilganlik xususiyati kreativlik faoliyatni dolzarblashtiradi, uni real zaruriy omilga aylantiradi. Kreativlik shunchaki biror narsani o'zgartirish bo'lib qololmaydi, u ushbu narsani yuqori darajadagi model, ko'rinish darajasiga yo'naltirishi bilangina qimmatlidir. Rivojlantirish kreativlikning asosiy maqsadlaridan biri sifatida, predmetni ideal ko'rinishda namoyon qiladi.

Ta'lim, xususan maktab ta'limi va uning o'quv adabiyotlari faqatgina bilim bermaydi, shu bilan bir qatorda jamiyatdagi turli stereotiplarning shakllanishi, bolalar ongida jamiyatning tuzilish haqidagi qarashlarning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Ta'limdagi o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, uslubiy qo'llanmalar, tarqatma materiallari va boshqalar o'quv adabiyotlar bolalar dunyoqarashiga katta ta'sir etadi. Shundan ko'rinish turibdiki, bizning ta'lim tizimimiz oldida turgan asosiy maqsad, "innovatsion insonni", "kreativ avlod"ni tarbiyalash, ta'lim-tarbiya jarayoni bo'ladimi doimo innovatsiya va yangi bilimlarga moyil bo'lishi, o'z ustida tinmay mehnat qilishi kerak bo'lgan avlodni tarbiyalashdan iborat.

Hozirgi globallashtirish dunyoning rivojlangan mamlakatlarida texnik texnologik yutuqlar va innovatsion yondashuvlar bilan belgilanadi. Ba'zi adabiyotlar va olimlarning qarashlarida innovatsiya shunday ta'rif berilgan: "Innovatsiya – yangi turdagi mahsulot va texnologiyalarni ishlab chiqish, yaratish

va tarqatish, yangi tashkiliy shakllarni joriy etishga qaratilgan ijodiy faoliyat natijasi"¹³ deya ta'riflanadi.

Shaxslar duch kelishi yoki qarshilashishi mumkin bo'lgan ijobiy omillar (vaziyatlar, sharoitlar va boshqalar) bularning nasliy va tug'ma ijodkorlik faoliyatini yanada yaxshilashga, yomon ya'ni salbiy sifatlar esa kreativlik jihatlarni susaytirishga yoki bulmasa buni mavjud bir holatda qoldirishga sabab bo'ladi.

Ta'lim tizimlarida shaxsni kreativ dunyoqarashini shakllantirish va ularda ma'lum bir bilim, ko'nikma hamda dunyoqarashni rivojlantirish zarur. Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib, biz kreativlik tushunchasiga nisbatan quyidagi mualliflik yondashuvini taklif qilamiz. Kreativlik – erkinlik faoliyatida yuzaga keladigan insonning individual xususiyati bo'lib, oldindan mavjud bo'lgan bilim va fikrlarni qayta ishlash asnosida yangi aloqalarni joriy etish ya'ni oldin mavjud bo'lgan bir nechta fikrlarni, oldin mavjud bo'lmagan holda biron bir joyga tuplash orqali bir qancha fikrlarni o'zaro birlashtirib, yangicha bir ma'no aks ettirishdir.

Kreativlik xususiyatlari asosida fan va ilmiy-texnik sohalarini tarkib toptirish mumkin. Insoniyatni hayoti tarzi qurol-yorog'lar yaratish va ular orqali ijtimoiy turmush tarziga zarur bo'lgan mehnat faoliyatida qo'llaganlar. Ulardan qay tarzda foydalanish usullari esa hayotiy tajribalar asosida takomillasha borgan. Biroq yangi fan texnika davriga kelib, afsuski, texnika va madaniyat orasida ma'lum bir qarama-qarshiliklar vujudga kela boshlagan. Bu borada, N.A.Berdyayevni ta'kidlashicha: "Biz asosiy paradoks oldida turibmiz, texnikasiz madaniyat mumkin emas, madaniyatning paydo bo'lishi u bilan bog'liq va texnikaning madaniyatda g'olibligi bu. Shuningdek, texnika asriga o'tish madaniyatning halokati hamdir. Madaniyatda mudom ikki texnik va tabiiy organik elementlar bo'ladi. Texnik elementning tabiiy organik element ustidan to'la g'olibligi madaniyatning madaniyatga o'xshamaydigan qandaydir boshqa narsaga aylanishini anglatadi"¹⁴.

Texnologiyalarning jamiyat asosiy borliqidan joy olishi insoniyatni hayot tarzi va uning turmush tarzini yengillashtirishi va qo'l mehanati va vaqtini tejash kabi jihatlari bilan bog'liqdir. Jamiyat

¹² Эргашходжаева Ш.Д. Инновацион маркетинг. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Иқтисодиёт. 2013. – Б. 10-11.

¹³ Научно-технический прогресс / Словарь. Сост. Горохов В.Г., Халипов В.Ф. – М., 1987: - С. 80.

¹⁴ Бердяев Н.А. Философия творчества, культуры и искусства. В 2 томах. Т.1. – М.: Правда, 1992. – С. 502.

taraqqiyotidagi insoniyatni turmush tarzi har bir yangilik hamda uni o'zgartirishi, rivojlanishi fan-texnikani taraqqiy qilishi bilan bog'liq holda rivojlanib bormoqda. "Texnika behad katta makonni va behad katta ommani egallaydi. Hamma narsa dunyoviy bo'ladi, texnika hukmronligi davrida hamma narsa barcha kishilar ommasiga yoyiladi... Texnika odamga juda qo'rqinchli kuch beradi, u kishining hukmronlikka va ekspansiyaga bo'lgan irodasining ifodasidir. Bu taqdirda barcha eski organik tartib buziladi va tashkilotning yangi shaklini texnika muqarrar qiladi. Shubhasiz, ushbu tashkilotning yangi shakli eski turmush tarzi va madaniyatdagi go'zallikni yemiradi. Hayotni ommaviy tarzda texnikalashtirish har qanday individuallikka, har qanday o'ziga xoslikka barham beradi, hammasi ommaviy muallifsiz, obrasiz bo'ladi. Bu davrdagi ishlab chiqarish ommaviy va anonimdir"¹⁵.

Yakuniy qism. Kreativlik xususiyatlari dastlabki bosqichida u mualliflikni talab etadi,

uning ijodiylik va izlanuvchanlik funksiyasi ham yangiliklarni bevosita izlanishi orqali namoyon bo'ladi. Keyingi bosqichlarda u jamoaviylashish va ommaviylashishga o'tadi. Bu bosqichlarda ilmiy-texnik kashfiyot, ijod turi homiy topish, ishlab chiqarishga joriy etish, eksperimentlar o'tkazish, ma'lum bir jihatlarini o'zgartirish yoki to'ldirish kabi jarayonlar bilan bog'liq bo'lgani uchun mualliflar ko'payadi. Xorijiy davlatlarda innovatsion ishlanmalarni izlovchi, ularga mablag'lar kirituvchi, innovatsiyalar bozorini shakllantiruvchi, sotuvchi, ishlab chiqarishga joriy etuvchi, eksperimentlar o'tkazuvchi, moliyaviy daromadlarini hisob-kitob qiluvchi mutaxassislar ish olib borishadi. Firma yoki korporatsiyaning daromad topishi innovatsion o'zgarishlarga tayyorligi va bu jarayonni maxsus o'rganib, tahlil qilib borishga bog'liq.

Xullas, kreativlik ijodkorlik, yangiliklarni kashf etish, harakatchanlik, izlanuvchanlik sifatida, u o'zining bir nechta vazifalariga ko'ra, kishilarni hayot tarzini o'zgartirishga, hamda mehnat resurslarini kengaytirishga, jamiyatni yanada yangilashga undaydi.

¹⁵ O'sha asar. – B. 407.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Аристотель*. Метафизика. Соч. в 4-х т. 1980. – 65 б.
2. Асмус В.Ф. История античной философия. Москва. 1965. – С. 26.
3. Бердяев Н.А. Философия творчества, культуры и искусства. В 2 томах. Т.1. – М.: Правда, 1992. – С. 502.
4. Can Yaşar, M. (2009). Anasınifına devam eden altı yaş çocuklarının yaratıcı düşünme becerilerine drama eğitiminin etkisinin incelenmesi. Doktora tezi, Ankara Üniversitesi, Fen Bilimleri Enstitüsü.
5. Кушаков Ш.С. Язык. Мышления и виртуальность (зарисовки к постнеклассической философии языка) // Глобаллашув шароитида фалсафа ва миллий ғоянинг долзарб масалалари. – Тошкент: ЎЗМУ, 2017. – С. 34-36.
6. Латипова Н.М. Молодежь в социальной структуре Узбекистанского общества // Общественное мнение. Права человека. – Ташкент, 2004. – №3. – С. 138-146.
7. Мигдал А.Б. Физика и философия // Вопросы философии. № 1, 1990. – С. 16.
8. Научно-технический прогресс / Словарь. Сост. Горохов В.Г., Халипов В.Ф. – М., 1987: - С. 80.
9. Файзуллаев О. Фанда инновацион фикрлаш: тарихимизда ва ҳозирги замонда // Ўзбекистон фани ва технологияларида инновация: муаммолар, ечимлар ва истикболи. Конференция материаллари. – Самарканд: Университет, 2007. – Б. 5.
10. Фалсафа энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат миллий нашриёти, 2000. – 275 б.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti", 2008. – B. 13.
12. Richard J. Foster. Innovation. New York. Summit Books, 1986; Кристенсен М. Клейтон. Дилемма инноватора. Как из за новых технологий погибают сильные компании. 7 е изд. – М.: Альпина Паблишер, 2018.
13. Starko, A. J. (2010). Creativity in the classroom: Schools of curious delight, New York, Routladge Madison Ave.
14. Sternberg, R. (2006), "The nature of creativity", Creativity Research Journal, Vol. 18/1, - P. 87-98.
15. Эргашходжаева Ш.Д. Инновацион маркетинг. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Иқтисодиёт. 2013. – Б. 10-11.